



UO'K: 338.48:551.48:911.37(575.1)

**ZOMINSUV HAVZASINING REKREATSIYA RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANGAN HOLDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI****ПУТИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В БАСЕЙНЕ ЗОМИНСУ ПРИ РАЦИОНАЛЬНОМ ИСПОЛЬЗОВАНИИ РЕКРЕАЦИОННЫХ РЕСУРСОВ****WAYS TO DEVELOP TOURISM IN THE ZOMINSUV RESERVOIR AREA THROUGH RATIONAL USE OF RECREATIONAL RESOURCES****G'oziyeva Matluba Turgunovna**

Jizzax politexnika instituti qoshidagi akademik litsey direktori.

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Zominsuv havzasining rekreatsiya resurslardan oqilona foydalangan holda turizmni keng ko'lamda rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, Zominsuv havzasidagi rekreatsiya resurslarini kelib chiqishi va foydalanish xususiyatlariga ko'ra 3 ta tabiiy, tabiiy-antropogen hamda antropogenga guruhlariga ajratilgan holda o'rganilgan va tahlil qilingan.

**Аннотация**

В данной статье рассматриваются вопросы широкомасштабного развития туризма в бассейне Зоминсу при рациональном использовании рекреационных ресурсов. Кроме того, рекреационные ресурсы Зоминсу изучены и проанализированы с точки зрения их происхождения и особенностей использования, и они были разделены на три группы: природные, природно-антропогенные и антропогенные.

**Abstract**

This article examines the issues of large-scale tourism development in the Zominsuv Reservoir area through the rational use of recreational resources. In addition, the recreational resources of Zominsuv have been studied and analyzed according to their origin and usage characteristics, and they have been classified into three groups: natural, natural-anthropogenic, and anthropogenic.

**Kalit so'zlar:** Butunjahon turistik tashkiloti (UNWTO), Zominsuv havzasi, turizm, sayyohlik, rekreatsiya resurslari, tabiiy, tabiiy-antropogen va antropogen rekreatsiya resurslar.

**Ключевые слова:** Всемирная туристская организация (UNWTO), бассейн Зоминсу, туризм, путешествия, рекреационные ресурсы, природные, природно-антропогенные и антропогенные рекреационные ресурсы.

**Key words:** World Tourism Organization (UNWTO), Zominsuv Reservoir, tourism, travel, recreational resources, natural, natural-anthropogenic, and anthropogenic recreational resources.

**KIRISH**

O'zbekistonning turizm salohiyati asosan tabiiy resurslar va landshaft xususiyatlariga bog'liq bo'lib, suv havzalari va tog'li hududlar mamlakatda turizmning rivojlanishida muhim markazlar sifatida e'tirof etilgan. Shu nuqtai nazardan, Zominsuv havzasi nafaqat o'zining tabiiy go'zalligi, balki rekreatsiya resurslarining boyligi bilan ham diqqatga sazovor hudud hisoblanadi.

Hududda mavjud suv resurslari, o'rmonlar, tog' relyefi, flora va fauna kabi tabiiy elementlar turizmning turli turlarini rivojlantirishga imkon beradi. Shu bilan birga, rekreatsiya resurslardan oqilona va barqaror foydalanish hududni ekologik muvozanatda saqlash, sayyohlik salohiyatini oshirish va mahalliy aholi uchun iqtisodiy foyda yaratish imkonini beradi.

Mazkur maqolada - Zominsuv havzasida rekreatsiya resurslardan samarali foydalanish orqali turizmni rivojlantirish yo'llarini aniqlash, ularning ekologik va tabiiy-geografik xususiyatlarini hisobga olgan holda strategik tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot natijalari hududni barqaror turizm rivoji yo'lida rejalashtirish va turizm infratuzilmasini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Zominsuv havzasida rekreatsion resurslardan oqilona foydalangan holda turizmni rivojlantirish masalasi turizm va ekologiya sohasidagi bir qancha tadqiqotlarda o'rganilgan. O'zbekiston olimlari hududning suv resurslari, tog' relyefi, o'rmonlari, flora va fauna kabi tabiiy elementlari turizmning turli turlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaganlar. Shu bilan birga, xalqaro tadqiqotlar, xususan, Butunjahon turistik tashkiloti (UNWTO)ning tavsiyalari rekreatsion resurslardan barqaror foydalanish orqali turizmni strategik rivojlantirish yo'llarini ko'rsatadi.

Tadqiqotlarda rekreatsion resurslar kelib chiqishi va foydalanish xususiyatlariga ko'ra uch guruhga bo'lingan: tabiiy, tabiiy-antropogen va antropogen resurslar. Bu tasnif turizmni rejalashtirish va rivojlantirishda hududning ekologik barqarorligini saqlashga yordam beradi.

Mazkur mavzuda qo'llaniladigan metodlar quyidagilar: analitik va taqqoslash metodlari hududning tabiiy-geografik xususiyatlarini boshqa suv havzalari bilan solishtirish imkonini beradi; kartografik metodlar yordamida turizm obyektlari, landshaftlar va rekreatsion resurslar xaritalanadi; maydon tadqiqotlari hududdagi tabiiy va antropogen obyektlarni o'rganish imkonini beradi. Shu bilan birga, statistik va iqtisodiy tahlil metodlari turizm salohiyati, tashrif buyuruvchilar soni va resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlashga yordam beradi.

Shu usullar yordamida Zominsuv havzasida rekreatsion resurslardan oqilona foydalangan holda turizmni rivojlantirishning ilmiy asoslangan tavsiyalari ishlab chiqilishi mumkin, bu esa hududni ekologik barqaror va iqtisodiy jozibador turizm markaziga aylantirishga xizmat qiladi.

#### MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Butunjahon turistik tashkiloti (**UNWTO**) tomonidan berilgan ta'rifga (2017 y) ko'ra "Turizm – sayyohlik qilayotgan va dam olish, ishbilarmonlik va boshqa maqsadlarda o'zining odatdagi muhitidan tashqarida, ketma-ket bir yildan ortiq bo'lmagan davr mobaynida joylashgan shaxslarning faoliyatidir" deyilgan.

Barchaga ma'lumki, 2019 yil 18 iyulda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Turizm to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunda "Turizm – jismoniy shaxsning vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo'nab ketishi (sayohat qilishi) deb ta'rif berilgan [1].

Turistlar boshqa hududlarga ishlash yoki yashash uchun emas, balki dam olish, yangi joylarni, davlatlarni, ulardagi tarixiy obidalarini ko'rish, diniy maskanlarni ziyorat qilish, milliy urf-odat va an'analar bilan tanishish, kurort va sanatoriyalarda sog'liqlarini tiklash, kasbiy faoliyatlari to'g'risida fikr almashish kabi maqsadlarni ko'zlagan sayohatchilardir [2].

Yer yuzida turistik resurslar mavjud bo'lmagan mamlakatlar bo'lmasa kerak. Turizm yo'nalishi va turizm turini erkin tanlagan holda turistik oqimlarni bilish va hatto ularni boshqarish imkoniyati bor. Buni amalga oshirish uchun chuqur geografik bilimlar zarur bo'ladi. Geografiyada aholining o'zi yashab turgan hudud, o'lka yoki biror mamlakatning diqqatga sazovor joylarini ko'rish maqsadida uyushtirgan faoliyat turiga "sayohat" yoki "turizm" deyiladi.

Hammaga ma'lumki, "Rekreatsiya" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "recreatio"- "dam olish" degan ma'noni anglatadi. Rekreatsiya deb, insonlar sog'ligini va mehnat qobiliyatini dam olish ob'ektlarida qayta tiklashi, sayyohlik yo'li bilan tabiatning turli maskanlariga borishi, arxitektura va tarixiy yodgorliklarni borib ko'rishiga aytiladi. Rekreatsiya resurslari sayohat hamda davolanish maqsadida foydalanilishi mumkin bo'lgan tabiat obektlariga rekreatsiya resurslari deyiladi. Ularga asosan, tog' yonbag'irlari, cho'llar, o'rmonlar, o'tloqlar, daryo, ko'l, dengiz sohillari, mineral buloq kabilar kiradi. Rekreatsiya resurslaridan dam olish, sog'lomlashtirish, sport bilan shug'ullanish, va aholini davolash kabi yo'nalishlarda foydalanish mumkin [3].

O'zbekistonda o'ziga xos tabiati bilan mashhur bo'lgan Zominsuv havzasida tabiiy geografik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli xil dam olish jarayonlarini tashkil etish mumkin. Jumladan, rekreatsiya keng ko'lamlil sohalarga ega bo'lib, ular qatoriga salomatlik ob'ektlarida sog'liqni tiklash, sayyohlik yo'li bilan tabiatning xushmanzara go'shalariga (daryo, ko'l, tog', g'orlar, sharshara, o'rmon va hokazo) borish, sport bilan shug'ullanish hamda noyob tarixiy va arxitektura yodgorliklari bilan tanishish kabilar kiradi [4].

Zominsuv havzasida turizm resurslari tabiiy va madaniy, iqtisodiy, tarixiy resurslarning ma'lum bir qismlaridan iborat bo'lib, kelib chiqishi va foydalanish xususiyatlariga ko'ra uch guruhga ajratiladi: tabiiy, tabiiy-antropogen va antropogen rekreatsion resurslar (1.1-rasmga qarang).

## GEOGRAFIYA

**Tabiiy rekreatsiya resurslari** – hududiy tabiiy komponentlar va landshaftlarni o‘z ichiga oladi. Ularga dengiz va ko‘l, daryo sohillari, manzarali va shifobaxsh o‘simlik dunyosi, xilma-xil xushmanzara joylar, mineral suvli shifobaxsh maskanlar, turistlarning dam olishi, sport bilan shug‘ullanishi uchun keng hududlar, qo‘riqxonalar tabiiy rekreatsiya resurslarga kiradi. Masalan, Qashqasuv, Yettikechuv, Usmonlisoy, O‘rikli soy, Zominsuv daryosi, Zomin va Esmeralda sharsharalari, Sherbuloq, Omonbuloq buloqlari, Qumbel dovoni archazorlari, Ming yoshli archa, 700 yoshli Boboyong‘oq, Chortangi darasi, Suffa platosi, Peshag‘ar va Yettikechuv g‘orlari, Qirqqiz va Tosh ustun tabiat yodgorliklari, Zomin tog‘- o‘rmon davlat qo‘riqxonasi shular jumlasidandir.

Zominsuv havzasidagi tabiiy rekreatsiya resurslar turistlarning dam olishi va sog‘liklarini tiklashida katta o‘rin tutadi.

**Tabiiy-antropogen rekreatsiya resurslari** Zomin milliy tabiat bog‘i, tog‘ chang‘i kompleksi, Zomin suv ombori, Miq qal‘asi, soy bo‘yida dam olish maqsadida qurilgan kempenglar, tur bazalar, park va bog‘lar kiradi.

**Antropogen rekreatsiya resurslari** - inson tomonidan yaratilgan tarixiy, monumental, arxeologik yodgorliklari, muzeylar hamda rekreatsiya maqsadida foydalanish mumkin bo‘lgan ijtimoiy ob‘ektlar, jumladan, Ko‘kto‘nli ota, Xo‘jayi Serob ota ziyoratgohlari, “Zomin sihatgohi”, “Plato” mehmonxona-sihatgohi, Zomin Azim shifo sihatgohi, Zilola mehmon uylari, dor yo‘li va osma ko‘prik kabilar kiradi.



### 1.1-rasm. Zominsuv havzasidagi tabiiy rekreatsiya resurslarini bo‘linishi.

Demak, Zominsuv havzasida turizmning rivojlanishi, turistik oqimlarni yuzaga kelishiga tabiiy geografik hudud, tabiiy-antropagen resurslar va ularning salohiyatini to‘g‘ri baholash, mahalliy aholining turmush tarzi va etnografik jihatlari ochib berish ham muhim rol o‘ynaydi.

Hozirgi vaqtda turizm juda keng qamrovga ega bo‘lib borayotganligi sababli tabiiy muhitga bog‘liq holda shakllanadigan turizmni xususiyatlarini hisobga olgan holda turlarga ajratish masalasi ham muhim ahamiyatga ega deb o‘ylaymiz (1.1 jadvalga qarang).

#### 1.1-jadval

#### Tabiiy muhitga bog‘liq holda turizm turlarining shakllanishi

Turizmning turlari	Turizm ko‘rinishlari	Turizmning shakllari
1. Tabiiy muhitga bog‘liq holda sog‘lomlashtirish turizmi - dam	1.1 Faol 1.2 Faol bo‘lmagan	1.1.1 Fitoterapiya 1.1.2 Mineral suvlar

olish va sog'lomlashtirish		1.1.3 Shifobaxsh balchiq 1.1.4 Piyoda yoki otlarda sayr qilish
2. Iqlimni o'zgartirish bilan bog'liq holda davolanish turizmi	2.1 Balandlik mintaqalariga bog'liq holda 2.2 Tekislik mintaqalaridagi bog'liq holda	2.1.1 Piyoda yoki otlarda sayr qilish 2.1.2 Tuz g'orlarida nafas olish 2.2.1 Quyosh vannalari
3. Sport turizmi - sport bilan shug'ullanish	3.1 Faol 3.2 Faol bo'lmagan	3.1.1 Alpinizm 3.1.2 Chang'i 3.1.3 Suzish 3.2.4 Yurish 3.2.1 Sport majmualarga borish
4. Sayohat turizmi - dunyoni bilish va atrof muhit bilan tanishish	4.1 Tashkillashtirilgan 4.2 Tashkillashtirilma-gan	4.1.1 Turistik firmalar orqali sayohat 4.2.1 Jamoaviy 4.2.2 Individual
5. Ov turizmi	5.1 Mahalliy 5.2 Xalqaro	5.1.1 O'simlik terish 5.1.2 Qush, baliq, hayvon ovi 5.1.3 Foto va video ov 5.2.1 Ekzotik qushlar va hayvonlar ovi 5.2.2 Ekzotik foto va video ov
6. Gastronomik turizm	6.1 Milliy 6.2 Xalqaro	6.1.1 O'zi yashab turgan hududning milliy taomlari 6.2.1 Chet davlatlarning ekzotik taomlari

### XULOSA

Zominsuv havzasida tabiiy muhitga bog'liq holda turizm turlarini rivojlantirish orqali nafaqat hududning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini oshirish, balki aholining sog'ligini mustahkamlash va kasalliklarni oldini olish bo'yicha samarali natijalarga erishish mumkin. Hozirgi zamonaviy hayotning intensiv ritmi, shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiyalar va kundalik stress inson organizmi va ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab sog'liq muammolari asosan ruhiy holat bilan bog'liq bo'lib, tabiiy muhitda ko'proq vaqt o'tkazish insonning psixologik barqarorligini tiklash, stressni kamaytirish va ishchanlik qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Shu sababli, turizmni tabiiy muhit bilan uyg'unlashtirib rivojlantirish strategik jihatdan muhimdir. Ekoturizm, suv bo'yidagi turizm, tog' turizmi va boshqa tabiiy resurslarga asoslangan turizm turlari nafaqat sayyohlarni jalb etadi, balki mahalliy aholining ruhiy va jismoniy salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tabiiy muhitni saqlash va undan oqilona foydalanish barqaror turizm rivojlanishining asosiy sharti bo'lib, Zominsuv havzasini nafaqat milliy, balki xalqaro darajada ekologik va sog'lom turizm markaziga aylantirish imkonini beradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni. 2019 yil 18 iyul.
2. Usmanov M.R. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari (Samarqand viloyati misolida) dis. – T.: 2003
3. Mahmudov M.M. Geografiya va globalizatsiya: nazariya va amaliyot // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Andijon, 2018. - 603 b
4. G'ozieva M.T., G'o'dalov M.R. Zominsuv havzasida re'lef xususiyatlarini hisobga olgan holda turizmni rivojlantirish. Geografik tadqiqotlarda zamonaviy geoinformatsion kartografiya, masofadan zondlash metodlari va texnologiyalarining roli. Mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent 24-26 aprel 2024 yil.
5. Ahmedov I. Turizm va ekologik barqarorlik: suv havzalari misolida. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti nashriyoti. 2014. yil.
6. Djalilov S. Tabiiy landshaftlar va turizm rivoji. Toshkent: Ilmiy tadqiqotlar nashriyoti. 2020. yil.